

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING POETIK  
TALQINI

Ibragimova Fazilat Erkinovna,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Jizzax davlat pedagogika universiteti BTNM kafedrası mudiri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18501905>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola dunyo tilshunosligida sintaktik birliklarning poetik talqini masalasini yoritishga bag'ishlanadi. Unda sintaksisning badiiy matndagi funksional-estetik imkoniyatlari, sintaktik qurilmalarning poetik ma'no hosil qilishdagi roli hamda ularning ekspressivlikni kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yetakchi lingvistik maktablar va nazariyalarda sintaktik birliklarning poetik interpretatsiyasi, ularning stilistik va pragmatik xususiyatlari umumlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** sintaktik birliklar, poetik talqin, badiiy matn sintaksisi, funksional-estetik imkoniyatlar, sintaktik ekspressivlik, stilistika, pragmatika, poetik nutq, lingvistik maktablar, matn lingvistikasi.

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблеме поэтической интерпретации синтаксических единиц в мировом языкознании. В ней анализируются функционально-эстетические возможности синтаксиса в художественном тексте, роль синтаксических конструкций в формировании поэтического смысла, а также их значение в усилении экспрессивности. Кроме того, обобщаются поэтические интерпретации синтаксических единиц в ведущих лингвистических школах и теориях, их стилистические и прагматические характеристики.

**Ключевые слова:** синтаксические единицы, поэтическая интерпретация, синтаксис художественного текста, функционально-эстетический потенциал, синтаксическая экспрессивность, стилитика, прагматика, поэтическая речь, лингвистические школы, лингвистика текста.

**Annotation.** This article is devoted to the issue of the poetic interpretation of syntactic units in world linguistics. It analyzes the functional and aesthetic potential of syntax in literary texts, the role of syntactic structures in the formation of poetic meaning, and their significance in enhancing expressiveness. In addition, the poetic interpretation of syntactic units in leading linguistic schools and theories, as well as their stylistic and pragmatic features, are systematized and generalized.

**Keywords:** syntactic units, poetic interpretation, literary text syntax, functional and aesthetic potential, syntactic expressiveness, stylistics, pragmatics, poetic discourse, linguistic schools, text linguistics.

**Kirish.** Lingvopoetik tahlil matnda stilistik markerlangan til birliklari bilan bog'liq bo'ladi. Markerlangan va neytral til birliklarini ajratish uchun matnda mazmun va ifoda planining orasidagi bog'liqlikni, aloqani tushunish kerak. Avvalo, matnda ishlatilgan markerlangan birliklar ro'yxatini tuzish kerak, shundan keyin tahlilni davom ettirish mumkin. Neytral birliklar markerlangan birliklardan farqli ravishda stilistik konnotatsiyaga ega bo'lmaydi.

Axmanovada konnotatsiya ma'no qirralari yoki obertonlar, so'zning ma'nosiga qo'shimchalar: "so'z ma'nosini to'ldiruvchilar, ular yordamida semantik yoki stilistik

ottenka yuzaga keladi va har xil ekspressiv-emotsional-baho obertonlarni yuzaga keltiradi, shu bilan tantanavorlik, tabiiylik, erkinlik kabilarni ifodalaydi” [2].

Ingerent konnotatsiyalar til birliklariga biriktirilgan bo‘ladi. Adgerent konnotatsiyalar esa ijod jarayonida paydo bo‘ladi. Neytral til birliklaridan turli kombinatsiyalarda kutilmagan va original uslublar bilan yangi konnotatsiyalarni yaratish mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Ingerent konnotatsiyalar ba’zi ajratilgan so‘zlar bilan chegaralanadi, adgerent konnotatsiya esa obrazli nutqlar orqali ifodalanadi. Ingerent konnotatsiyalar haqidagi bunday taklifni I.B.Gyubbenet han o‘z ishlarida taklif qilgan. U ingerent konnotatsiyalarni til sathiga, adgerent konnotatsiyalarni nutq sathiga kiritadi. Adgerent konnotatsiyalar leksikasi faqat kontekst yoki uning qismi bilan aloqada o‘rganiladi.

I.V.Gyubbenet nazariyasiga ko‘ra ingerent konnotatsiyalar referensial shartlangan yoki til nuqtayi nazaridan markerlangan bo‘lishini ta’kidlaydi. Konnotativ birliklar ko‘pincha prosodik vositalar orqali reallashadi, masalan, nutq tempining tushishi bilan.

Konnotatsiyalar haqida gap ketganda Sh.Balli [4] tadqiqotlariga murojaat qilish lozim ko‘rinadi. U til birliklarining tabiiy ekspressiv xususiyatlari va u yoki bu til birliklarini qo‘llash jarayonida yuzaga chiqadigan ekspressiv effektlarni farqlagan. Bu holatda birinchisi ingerent analogi, ikkinchisi esa adgerent konnotatsiya sifatida qabul qilish mumkin.

Markirlangan til birliklari I.R.Galperinning “Ocherki po stilistike angliysokogo yazika” [5] asarida o‘rganilgan. Asarda stilistik priyomlar, markerlangan til birliklari, yozma va og‘zaki nutqqa alohida e’tibor berilgan, so‘zlarning turli leksik guruhlarga e’tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif matn tahlilida zarur bo‘lgan stilistik priyomlarning to‘liq ro‘yxatini keltirgan holda konnotatsiyaning paydo bo‘lishi haqida nazariy tushuncha bermaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda lingvopoetik tahlil metodlariga tayangan holda badiiy matndagi sintaktik birliklarning poetik talqini o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida uch sathli tahlil, qiyosiy hamda lingvopoetik stratifikatsiya metodlari qo‘llanib, sintaktik qurilmalarning semantik, metasemiotik va estetik funksiyalari aniqlandi. Shuningdek, yetakchi lingvistik maktablar qarashlari asosida sintaktik birliklarning stilistik va pragmatik xususiyatlari umumlashtirildi.

**Tahlillar va natijalar.** Markerlangan birliklar badiiy matnda har xil darajada reallashadi. Yuqorida ta’kidlanganday, turli mualliflarning matnlarini tahlil qilish jarayonida tuzilgan markerlangan birliklar ro‘yxati bir-biriga mos kelishi mumkin, ammo matn haqidagi umumiy tushunchalar, taassurotlar har xil bo‘ladi.

Nisbiy lingvopoetik ma’nodlilik kategoriyasi stilistik markerlangan birliklarning turlicha ifoda darajalarini tushuntirish uchun kiritilgan. Lingvopoetik ma’nodlilik turli variantlarda uchrashi mumkin, konnotativ birlik semantik va shuningdek, metasemiotik

sathda oddiy me'yorda, ya'ni nutqda to'liq lingvopoetik jihatdan ishlatiladi. Markerlangan birlik kuchaytirish uchun ishlatiladi, bu holatda birlik avtomatik ravishda nutqda qo'llanadi. Va nihoyat ma'lum bitta matnda konnotativ birlik o'zining semantik va metasemantik xususiyatlarini potensional reallashtirishi mumkin – aktuallashgan nutqiy jarayon [3].

“Avtomatizatsiya” va “aktualizatsiya” terminlari rus tilshunoslari va Parij lingvistik to'garagi a'zolari ishlarida qo'llanilgan. O.S.Axmanova lug'atida shunday ta'riflanadi: “Til birliklarining avtomatizatsiyasi inglizcha *avtomatization* – til birliklarining odatiy (uzual) qo'llanishi, vaziyat va kontekstga bog'liq bo'lmagan holda oddiy va erkin holatda qabul qilinadi” [2].

“So'z birikmasining bir komponenti avtomatizatsiya natijasida (ko'proq adyektiv so'z birikmalarida) o'zining lingvopoetik xususiyatlarini yoqotadi va matndan mazmunga ta'sir qilmagan holda chiqarish mumkin. Shu sababli to'liq bo'lmagan so'z birikmasi lingvopoetik jihatdan to'la qimmatlilik bo'lmaydi”.

“Aktualizatsiya haqida so'z birikmalarining butun matnning mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lganda so'z birikmalari komponentlaridan biri boshqa elementlar bilan birga bog'lanadi va natijada uning xususiyatlarini kengaytiradi” [7].

Til vositalarining aktualizatsiyasi deganda, til birliklarini individual, okkozional va metaforik jihatdan qo'llanishiga aytiladi. Lingvopoetika Parij lingvistik to'garagining an'analarini rivojlantirdi va davom ettirdi [6].

Professor A.A.Lipgart badiiy matnda til birligi bajaradigan bir qancha lingvopoetik funksiyalarni farqlaydi. Masalan, atributiv so'z birikmalari matnda uchta asosiy lingvopoetik funksiyani bajaradi: ekspressiv (aytuvning konnotativligini kuchaytirish), semantik (gnomik) va assotsiativ (qo'shimcha obrazli qatorlarni rivojlantirish).

Gnomik funksiya ma'lum bir fenomenning konkret xarakteristikadan cheklangan, doimiy deb qabul qilingan bo'ladi. O'quvchi hayot tajribasiga suyanib biror harsa haqida fikrlaydi. Gnomik xarakterdagi ifoda matnga abstraktlikni va umumiylik ottenkasini beradi. Assotsiativ funksiya o'quvchining emotsiyalariga ta'sir ko'rsatadi, matnning assotsiativ o'lchovini ochib beradi. Ekspressiv funksiya matnda mavjud bo'lib bo'lgan fikrni kuchaytiradi.

Stilistik markerlangan til birliklari ekspressiv funksiyani bajarganda boshqa u yoki bu g'oyalar haqida fikrlashga yoki murakkab assotsiativlarni rivojlantirishga mo'ljallanmagan. Shunga ko'ra, ularni matn tarkibidan mazmunga ta'sir qilmagan holatda chiqarib yuborish mumkin.

Fikrlashga qaratilgan tipli matnlar ko'pincha assotsiativ funksiyalar bilan bog'liq bo'ladi, garchi gnomik va ekspressiv funksiyalar ham bo'lishiga qaramay, gnomik funksiya hissiyot aks etgan matnlarga xosdir, tavsifiy matnlar esa ekspressiv funksiya bilan assotsiativ bog'lanadi. Lekin bu sxemani mexanik ravishda qo'llab bo'lmaydi,

chunki bu sxema umumiy an'analar va yo'nalishlar haqida tasavvur beradi. Bu holatlar badiiy adabiyot matnlari bilan tanishish jarayonida yuz beradi.

Olimlar lingvopoetik tahlilda bir qancha metodlardan foydalangan. Lingvopoetik tadqiqot metodlari tipologik tadqiqotlar tarkibiga kiradi. Ushbu metod hajm jihatdan katta materiallarni qanday lingvopoetik funksiyalarni bajarayotganini o'rganadi yoki tahlil uchun tanlangan matnning mazmuniga bog'liq biror elementning tahlilini bajaradi. Biz ulardan quyidagi metodlarni ko'rib o'tamiz:

- 1.Uch sathli tahlil metodi.
- 2.Qiyosiy metod.
- 3.Lingvopoetik stratifikatsiya metodi.

Lingvopoetik tahlil rivojida uch sathli tahlil metodi quyidagilarga ajraldi: lingvopoetik stratifikatsiya, lingvopoetik qiyoslash, lingvopoetik hikoya tiplari. Adabiy matnlarning tahlili uchun shakllangan birinchi metod uch sathli tahlildir[9].

Lingvopoetik tadqiqotlarning boshqa turlaridan uch sathli yondashuv ancha sodda: avvalo, tadqiqotchi matnning semantik sathini o'rganadi (matn mazmuni bilan bog'liq bo'lgan hamma masalani tushuntiradi), navbatdagi vazifa muallif qo'llagan nutq yo'li va nutq figuralarini aniqlaydi (tahlilning metasemiotik sath tahlili), oxirgi yakunlovchi (metametasemiotik) sathda matnda ishlatilgan markerlangan til birliklarining estetik effekt paydo qilishi va aniqlangan badiiy mazmuni ifodalaydi. Matnning metametasemiotik tahlil sathi lingvopoetik interpretatsiyasida identichli bo'ladi.

Tahlilga tortilgan badiiy matnda dastlab til birliklarining semantik va metasemiotik xususiyatlarini o'rganish mazkur matnning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda til birliklarining rolini aniqlashga imkon beradi. I.A.Arjanova haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek: "Lingvostilistika lingvopoetikaga tahlil uchun zarur materialni taqdim etadi. Biroq ta'sir funksiyasi bilan o'zaro bog'liqlik va bundan kelib chiqadigan lingvostilistik markerlanganlik matnning u yoki bu elementi lingvopoetik vazifa bajarishi xarakteri haqida ham hech narsa demaydi, chunki o'ziga xos kontekstual sharoitda til birliklari, umuman olganda, ularga xos ko'plab xususiyatlarni yo'qotishi yoki aksincha, o'zining imkoniyatli xususiyatlarini dolzarblashtirishi, faollashtirishi mumkin. Matn u yoki bu elementini qo'llashning lingvopoetik ahamiyati qandayligini aniqlash uchun lingvopoetik tahlil yetarli bo'lmay qoladi. Lingvostilistika matnning umumiy mazmuni bilan stilistik belgilangan birliklar aloqalarini o'rganish bilan shug'ullanmaydi, lingvopoetika uchun esa bu masala markaziydir"[1].

Ammo uch sathli tahlil ba'zi kamchiliklarga ega. Bu tahlil metodi metasemiotik sathdan lingvopoetik umumlashgan xarakterga o'tishini aniq tasvirlab bermaydi. Obyektiv va batafsil matn tahlili uchun konkret asar aniqlanib uni yozuvchi ijodi bilan yoki shu asarga analogik bo'lgan boshqa badiiy asar bilan solishtirish lozim bo'ladi. Shunga qaramay, uch sathli tahlil metodini o'rganish oson va ayrim xususiyatlari bilan didaktik nuqtayi nazaridan ba'zi afzalliklarga ega.

Alohida olingan matnlarning lingvopoetik tahlili birinchi navbatda akademik V.V.Vinogradov ilmiy tadqiqot ishlariga borib taqaladi. Shunga qaramay olimning ilmiy ishlari fundamental bo'lsa-da, klassik badiiy adabiyotga xos bo'lgan xususiyatlarni to'lagicha ochib bera olmaydi. Shu sababli til elementlarining estetik xususiyatlarini ham alohida o'rganishga to'g'ri keladi. Shu o'rinda V.Y.Zadornova va uning shogirdlari tadqiqotlariga e'tibor qaratmoq kerak. Bu tadqiqotlar qiyosiy tarzda bajarilib, unda original matnlarni ularning boshqa tillardagi tarjima matnlariga solishtirib o'rganilgan. Natijada original matndagi ba'zi elementlarning tarjima matnlarida yo'qolishi mazmunga ta'siri, shu element orqali original matnda ifodalangan estetik xususiyat yo'qolishini ko'rsatishgan.

Lingvopoetik stratifikatsiya metodi mavzuviy-uslubiy jihatdan farqlanadigan matnlarga nisbatan qo'llanadi. Lingvopoetik stratifikatsiya "badiiy matnlarning shunday tahliligi, unda badiiy obrazli va leksik-grammatik struktura hamda uslubiy xususiyatlar bilan bir uslubiy dominantga bog'lanadigan birliklarni ajratadi"[7:32].

Lingvopoetik stratifikatsiya metodini A.A.Lipgart Shekspirning "Gamlet", O.Uayldning "Baxtli Shaxzoda", "Doriana Grey portreti" asarlari tahlilida qo'llagan va L.V.Polubichenkoning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asari stratifikatsiyasini aniqlagan[8].

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan asarlardan tashqari, stratifikatsiya metodi "yagona lingvopoetik metod haqida gapirishga yo'l bermaydi; stratifikatsiya tamoyillari lingvopoetik tamoyiliga ko'ra semiotik va ekstralingvistik tamoyillarga yaqin turadi. Ushbu metod yana qayta ishlanilishi, rivojlantirilishi, mukammallashtirilishi lozim[7.26].

**Xulosa.** Lingvopoetik qiyoslash mavzu va uslubiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan matnlarga qo'llanadi: "lingvopoetik qiyoslash metodining asosida matnlarni solishtirish, taqqoslash uslubi turadi, u syujet va funksional-uslubiy jihatdan o'xshashlikka asoslanadi" [6.32]. Lingvopoetik taqqoslashda matnlar teng va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Ikkilamchi matnlarga tarjimalar, adaptatsiyalar, parodiyalar kiradi. Ushbu tahlil turi boshqa lingvopoetik tadqiqot metodlari ichida alohida, ajralib turadigan, nisbatan obyektivligi bilan ajralib turadigan metoddir (lekin bu fikr boshqa tahlil metodlarining obyektivligini inkor etmaydi). Har qanday lingvopoetik tadqiqot bir yoki ikki alohida olingan matnlarda markerlangan birliklarning ro'yxatini olish bilan boshlanadi. Lingvopoetik solishtirish, taqqoslash metodi A.A.Lipgartning nomzodlik dissertatsiyasida batafsil bayon qilingan. Olim Shekspirning "Венецианский купец" va Marlning "Малтийский еврей" asarlarini solishtirib tahlil qilgan. Bu asarlar 1590-yillarda yozilgan bo'lib, bularning tahlilini sinxron tarzda tahlil qilingan deyish mumkin. Ushbu tadqiqot ishida mazkur metod Bibliyaning ingliz tiliga tarjimasiga qo'llangan bo'lib, buni diaxron tahlil deyish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аржанова И.А. Функционально-коммуникативные и лингвопоэтические функций эллиптических онструкций в современной художественной литературе на английском языке: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1999. –188 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – М: “Советская энциклопедия”, 1969. – 608 с. [Электронная версия <http://www.classes.ru/grammar/174.Akhmanova/1.-204> с.
3. Ахманова О.С., Гюббенет И.В. Вертикальный контекст как филологическая проблема. – Вопросы языкознания 1977 N3 – С. 47-54.
4. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Издво иностранной литературы, 1955. – 416 с.ж; Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1961. – 394 с.
5. Гальперин. И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Изд-во лит. На иностр. языках, 1958. – 462 с.
6. Задорнова В.Я. Стилистика английского языка. Методические указания.– М.,1986. – 23 с.
7. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. — М.: «КомКнига», 2006. – 22-23 с.
8. Полубиченко Л.В. Филологическая топология: теория и практика. Дисс.... докт.филол.наук. – М., 1991. – 729 с.
9. Akhmanova O.S., Idelis R.F. What Is the English We Use? (A Course in Practical Stylistics). – М., 1978. – P. 43-51.

